

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SHUKUROVA ZILOLA YUSUFOVNA

ADABIY MAKTABLAR MULOQOTIDA TURKIY TILDAGI QO'LYOZMA
BAYOZLARNING O'RNINI
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHI)

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMiy DARAJASINI OLISH UCHUN
YOZILGAN DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Qo'lyozma huquqida

UO'K: 930.2:801.82+821.512.1.09-1

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)
on philological sciences

Shukurova Zilola Yusufovna
Adabiy maktablar muloqotida turkiy tildagi qo'lyozma bayozlarning o'rni
(XIX asr oxiri – XX asr boshi) 3

Shukurova Zilola Yusufovna
The Role of Turkish-Language Manuscript Bayāz in the Interaction of Literary
Schools (Late 19th – Early 20th Century) 31

Шукурова Зилола Юсуфовна
Роль рукописных базов на тюркских языках в коммуникации литературных
школ (конец XIX – начало XX века) 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works 61

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SHUKUROVA ZILOLA YUSUFOVNA

ADABIY MAKTABLAR MULOQOTIDA TURKIY TILDAGI QO'LYOZMA
BAYOZLARINING O'RNI
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHI)

10.00.10 – Matshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN
YOZILGAN DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.DSc/Fil809 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning
vebsahifasida (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz)
joylashirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**
filologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponenlar: **Shodmonov Nafas Namozovich**
filologiya fanlari doktori, professor

To'xtiyev Boqijon
filologiya fanlari doktori, professor


Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat adabiyot
muzeyi**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7"
04 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-
12-44. (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (111 raqam bilan ro'yxatga olingan)
(Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-
42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "18" "03" kuni tarqatildi.
2026-yil "18" "03" dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)



KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanida har bir millat tarixi, madaniyati, tafakkuri to'g'risida ma'lumot beruvchi birlamchi qo'lyozma manbalarni tadqiq qilishga e'tibor tobora kuchaymoqda. Chunki ajdodlar qoldirgan yodgorliklarni aniqlash, ilmiy iste'molga kiritish orqali millat tarixini o'rganish va milliy o'zlikni anglashga imkoniyat ortadi. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda dunyo tajribasida sinalgan tadqiqot usullaridan foydalanib har bir matn va manbaning yaratilish tarixi, o'rni, sharoit va unga ta'sir qilgan omillarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir adabiy matn davr ehtiyoji, adabiy muhitlar mahsuloti sifatida yuzaga chiqar ekan, adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ham o'zida namoyon etishi bilan qimmatlidir.

Dunyo manbashunoslari tomonidan matnlarni tadqiq qilish va ishonchli matnni tiklashga xizmat qiluvchi turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Ular nodir manba va uning muallifini aniqlashda, nusxalarni qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy, antropologik yondashuvlar asosida tahlil etishda, ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzishda katta yordam beradi. Biroq hududiyiligi va davriyligiga ko'ra turli darajadagi shoirlar ijodini bir manbada jamlagan makrorekslar tadqiqi haqida gap ketganda, ishlab chiqilgan mavjud nazariyalarning hammasi ham muvofiq kelmasligi ayon bo'ladi. Aslida ana shunday matnlar davr tarixi, adabiyoti, madaniyati, millat o'tmishi bilan bog'liq ko'plab masalalarni aniqlashirishda yordam beradi. Shu nuqtaiy nazardan turli hududlarda yaratilgan bayozlarning adabiy muhitlararo aloqasi va o'zaro ta'siri masalasini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar XX asrning birinchi yarmidan boshlangan bo'lsa-da, uni xolis va mukammal o'rganish zaruratining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi mustaqillik davrida ro'y berdi. Davlatimiz rahbari milliy o'zligimiz, tariximizni yorituvchi ushbu matnlarni tezroq o'rganib, nashrga tayyorlab xalqqa yetkazishni kun tartibiga alohida masala qilib qo'ydi! Ana shu euzu, ayni paytda mas'uliyatli va mashaqqatli vazifalarni amalga oshirish uchun ajdodlar ma'naviy merosini ommalashtirish, milliy o'zligimizni anglash orqali xalqning tafakkurini yuksaltirish talabi bugungi kun mutaxassislari oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Shu ma'noda bayozlarni o'rganish va taraqqiy etish omillarini aniqlash, adabiy ta'sir va uning bayozlardagi ifodasini ochib berish, xonliklar davri adabiy muhiti, ularning qo'shni xonliklar bilan adabiy aloqalari, bayozlarning adabiy-madaniy muloqot almashinuv jarayoniga ta'siri va unda shoirlarning faollik darajasini o'rganishda muhimdir. Bayozlar misolida xonliklar davri adabiyotidagi shoirlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, adabiy muloqotga ta'sirini o'rganish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tiling davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-maydagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan "A'diblar xiyoboniga" tasharifi cho'g'ida ro'zlagan nutqidand. <https://yuz.uz/uz/news/ezgu-goyalardan-hunyod-bolgan-muazzam--xyobon>